



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-OKTABR
OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz



Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 6682 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 745 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,1 %i) Qo'qon shahriga, 724 tasi (10,8 %) Farg'ona shahriga, 605 tasi (9,1 %) Marg'ilon shahriga, 498 tasi (7,5%) Uchko'prik tumaniga va 395 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-noyabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
Jami:	6682	1128	100,0
Farg'ona sh.	724	107	10,8
Qo'qon sh.	745	83	11,1
Quvasoy sh.	198	41	3,0
Marg'ilon sh.	605	96	9,1
tumanlar:			
Oltiariq	297	41	4,4
Qo'shtepa	268	85	4,0
Bag'dod	329	69	4,9
Buvayda	258	46	3,9
Beshariq	195	32	2,9
Quva	300	60	4,5
Uchko'prik	498	64	7,5
Rishton	351	78	5,3
So'x	207	31	3,1
Toshloq	286	57	4,3
O'zbekiston	395	70	5,9
Farg'ona	257	50	3,8
Dang'ara	380	38	5,7
Furqat	175	52	2,6
Yozyovon	214	28	3,2



Fargʻona viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari


Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 37 770,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi *108,1% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining toʻrt yillik koʻrsatkichlari oʻsish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oʻsayotganligini koʻrsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 9 228,9 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.




2024-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 35 099,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 110,7% ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **126,3 mlrd soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-oktabr

2022-y	71,6 mlrd soʻm
2023-y	183,9 mlrd soʻm
2024-y	126,3 mlrd soʻm

FHI, % da

2022-y	29,9 %
2023-y	242,8 %
2024-y	49,6 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **35 099,0 mlrd soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,9 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-oktabr

2022-y.	22 870,1 mlrd soʻm
2023-y.	26 547,0 mlrd soʻm
2024-y	35099,0 mlrd soʻm

FHI, % da

2022-y.	105,1 %
2023-y.	103,3 %
2024-y	110,7 %





**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2024	88,2	2024	89,2	2024	18,3
2023	136,0	2023	102,2	2023	97,2
2022	82,8	2022	125,2	2022	89,9
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	23,5	2024	68,5	2024	90,4
2023	48,0	2023	78,1	2023	87,5
2022	86,1	2022	109,8	2022	88,0
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	94,5	2024	120,4	2024	165,0
2023	167,9	2023	94,1	2023	112,8
2022	64,7	2022	66,1	2022	63,1
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	95,5	2024	84,5	2024	103,9
2023	104,5	2023	135,6	2023	126,2
2022	93,9	2022	118,3	2022	157,7

2024-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 232,9 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 89,2%ni tashkil etgan), 316,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (88,2%ni), 62 050,3 tonna paxta iplari mahsulotlari (62,1%ni) hamda 14 074,0 ming kv.metr paxtadan tayyorlangan matolar 53,2 % ni tashki, etgan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	261,0	232,9	-28,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	229,4	207,4	-22,0
Paxta chigiti, ming t.	108,8	91,9	-16,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	6,2	1,4	-4,8

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,0 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 15,1% (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 92,9% (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,7 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,7% (23,9%) va quyi texnologiyali – 49,1% (51,1%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 282,8 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 252,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9% ni etdi o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 173,3 % ga ko'paydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,5 %ni ishlab chiqarish hajmi esa 4 517,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,4 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 5 481,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,6 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,9 martaga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 228,6 mlrd so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 133,1% ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,2 % ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 8943,4 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 97,3 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,2 %, fizik hajm indeksi 135,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 2732,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 121,1 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,9 % ni, fizik hajm indeksi 94,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3735,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,8 % ni fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni tashkil etgan.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 124,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 591,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni fizik hajm indeksi esa 83,4 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi 126,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1435,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni fizik hajm indeksi esa 136,4 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 156,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 479,3 mlrd so'mni tashkiletdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 136,4 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 89,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1152,5 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 20,9 % ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 1 117,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2268,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ni) tashkilotadi.


2024-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 547,1 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	315,8	306,1	-9,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1305,0	1050,6	-254,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 276,6 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	16,5	32,6	16,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	17,3	25,8	8,5


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 32,6 mlrd so'm yoki 2 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 25,8 mlrd so'm va 148,9 % ga ko'paygan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7 806,1 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 23,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-oktabr



2024-yil yanvar-oktabr



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd soʻm)da

2023-yil yanvar-oktabr




2024-yil yanvar-oktabr



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2024-yilning yanvar-oktabr oylarida
(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17 281,5 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,6 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat
mahsulotlari hajmidagi
ulushi,
% da**



**Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd soʻm)**

